

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АЛОҚА, АХБОРОТЛАШТИРИШ ВА
ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ДАВЛАТ ҚЎМИТАСИ
ТОШКЕНТ АХБОРОТТЕХНОЛОГИЯЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ ФАРҒОНА
ФИЛИАЛИ

«АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ» КАФЕДРАСИ

«ҲИМОЯГА»

Кафедра мудири

« ____ » _____ 2015 й

**Oliy ta'lim mussasasi diplomini olganligi
to'g'risida ma'lumot taqdim etuvchi
interaktiv xizmat yaratish** МАВЗУСИДА

МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ

БИТИРУВЧИ:

Н.Исмаилов

612-11 гуруҳ талабаси

Фарғона – 2015 йил

Mundarija

KIRISH.....	3
I BOB. ANALITIK QISM	7
1.1 Internetda interaktiv xizmatlar.....	7
1.2 Oliy ta’lim muassasalarida interaktiv xizmatlarni tashkil etish tartibi.....	10
1.3 TATU Farg’ona filiali “OTM diplomini olganligi” interaktiv xizmatining pasporti.....	18
II BOB. LOYIHALASH QISMI.....	20
2.1 CMS tizimlari va uning turlari.....	20
2.2 CMS/CMF web saytlar yaratish sohasida tutgan o’rni (Drupal tizimi misolida)	29
Drupalni o'rnatish.....	30
2.3 DREAMWEAVER dasturiy tizimi imkoniyatlarini keltirish	42
III BOB. TADBIQ QILISHNI TASHKIL QILISH VA LOYIHA SAMARADORLIGI	50
Malakaviy bitiruv ishining amaliyotga tadbiqu.....	50
Tizimning samadorlik ko’rsatkichlari.....	55
IV BOB. MEHNAT MUHOFAZASI	56
Xulosa.....	75
Foydalanilgan adabiyotlar.....	76

KIRISH

Insoniyatning XX asrdagi eng buyuk kashfiyotlaridan biri elektron hisoblash mashinalarining, ya'ni kompyuterlarning ixtiro qilinishidir deb bimalol ayta olish mumkin. Buning ham o'ziga Yarasha birmuncha sabablari bor albatta. Dastlabki kompyuter XX asrning ikkinchi Yarmi oxirlarida ixtiro qilingan bo'lsa hozirgi kunga kelib, ya'ni oradan 60 yildan ziyodroq vaqt o'tib uning beshinchi avlodlari ixtiro qilindi. Yana shuni ham bimalol ayta olish mumkinki hozirgi kunga kelib jamiyatimizni har bir sohasini kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilishimiz mumkin emas. Chunki hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari, avtomatika kirib bormagan xalq xo'jaligining biron-bir sohasi qolmadi.

Bu borada ya'ni kompyuter texnologiyalarini xalq xo'jaligining barcha sohalariga tadbiq etish, bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyalar tarmoqlarini, ma'lumotlar uzatishni, Internet xizmatlariga kirib borishni rivojlantirish va zamonaviylashtirish respublikamizda ham ustuvor o'rinlarga chiqmoqda.

Iqtidorli yoshlar ishtirokida respublikada Internet-festivallar, Internet-forumlar o'tkazish odat bo'lib qoldi, shaharlar va kishloqlarda Internet tarmog'idan jamoa bo'lib foydalanish (internet cafe) punktlari soni tobora ko'paymoqda, axborot xizmatlari turlari sezilarli darajada kengaymoqda, ularning servisi yanada intellektualroq bo'lib bormoqda.

Mamlakat Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov 2001 yil may oyida Oliy Majlisning V sessiyasida so'zlagan nutqida kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini ishlab chiqarishga, maktablar va oliy o'quv yurtlari dasturlariga, odamlarning kundalik turmushiga joriy etish bo'yicha O'zbekistonning yuksak darajalarga erishishi yuzasidan aniq vazifalarni qo'ydi.

Jamiyatni kompyuterlashtirish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha vazifalarni xal etish uchun 2002 yil 30 mayda O'zbekison Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida» gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi axborotlashtirishning milliy tizimlari barpo etilishini,

iqtisodiyotga va jamiyatning xar bir a'zosi xayotiga kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalari ommaviy joriy etilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi, jahon bozorida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi.

Prezident Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi va 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturini tasdiqladi, ularda telekommunikatsiyalar va malumotlar uzatishni rivojlantirish, resurslardan foydalanish, Internet tarmog'ida o'z saytlarini yaratishning maqsadli yo'nalishlari belgilandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham Internet foydalanuvchilari soni jadallik bilan ko'paymoqda. Aloqa va aborotlashtirish agentligi bergan xisobotlarga ko'ra Xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish umumiy tezligi 825 Mbit/s. Internetdan foydalanuvchilar soni 2,5 mln. ta, ya'ni 1000 fuqaro hisobiga 89,9 foydalanuvchini tashkil etmoqda. Shu jumladan milliy «UZ» domen zonasida ikkinchi darajali domenlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi tashkilotlar soni 7 taga oshgan. Aktiv holatidagi milliy domenlarning soni 8000 tadan oshgan.

O'tgan yili Vazirlar Mahkamasida Axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar masalalari Kompleksining 2009 yilning 9 oyida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlariga bag'ishlangan majlisi bo'lib o'tdi.

Majlis xisobotiga ko'ra 2009 yilning o'tgan davrida Kompleks bo'yicha jami 1 367,94 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, xizmatlar ko'rsatilgan. O'sish surati 2008 yilning shu davriga nisbatan 126,85% ni tashkil etgan. Aholiga 820,49 mlrd. so'mlik (141,6 %) pullik xizmatlar ko'rsatilgan. Investitsiyalar dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha 332,8 mlrd. so'mlik (234,17 mln. AQSH dollari) mablag' o'zlashtirilgan yoki rejaga nisbatan 120% ga bajarilgan. Eksport prognozi ko'rsatkichlari 116,8 % ni tashkil qilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari va jamiyatning axborotni tezkor ayirboshlashga, jahon axborot resurslariga kirib borishga bo'lgan yuqori ehtiyoji, ta'lim jarayonlarini va kishilarning kundalik turmushini kompyuterlashtirish zaruriyati, shuningdek axborot va

ma'lumotlar bazasi saqlanishini ta'minlash ehtiyoji ushbu muhim karorlar qabul qilinishi uchun asos bo'ldi.

Dasturda telekommunikatsiyalarning yangi ob'ektlarini qurish nazarda tutilgan. Jumladan, 2005 yilda xalqaro kanallar sonini ancha qo'paytirish, ularni 100 foiz rakamlashtirish mo'jallangan, mintaqaviy darajada kanallar soni 50 mingtagacha ko'payadi va raqamlashtirishning 72 foiziga erishiladi. Axborotni ayirboshlashni avtomatlashtirish 98 foizga etadi.

Agar bugungi kunda 62 oliy o'quv yurtidan faqat 40 tasi, 531 kollej va litseydan 22 tasi Internet tarmog'iga kirish imkoniyatiga ega bo'lsa, 2010 yilda Internet tarmog'iga kirib borish imkoniyatiga ega bo'lgan maktablar, litseylar va kollejlarning soni 10-15 baravar ko'payadi.

Ma'lumlarni uzatish tarmog'i sezilarli darajada rivojlanadi. Joriy yilning oxirdayoq kamida 235 ta yangi ma'lumotlar uzatish uzellari barpo etiladi. 2010 yilda esa Internetdan jamoa bo'lib foydalanish portlari soni 45 000 tani tashkil etadi. Aholi orasida foydalanuvchilar soni 55,6 mintadan 3321 mingtaga o'sadi yoki oilalarning deyarli 60 foizi ushbu jahonga mashhur va rivojlangan axborot tarmog'i xizmatlaridan foydalanadi. Respublikaning barcha aholi punktlari, shuningdek boshqaruv organlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchdan ikki qismi Internetga ulanadi.

Dasturiy vositalarni ishlab chiqish, mamlakatimizning kunda kompyuter texnikasi va buyumlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari birinchi darajali vazifalar etib belgilangan. Shu munosabat bilan kompyuterlar va ular uchun butlovchi buyumlar, dasturiy vositalar keltirish, o'qitish va axborot xizmatlari ko'rsatish bo'yicha bir qancha soliq va bojxona imtiyozlari joriy etiladi.

Qabul qilingan xujjatlarda kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlashni rivojlantirish va takomillashtirishning aniq vazifalari oldinga ko'yilgan va maksadli yo'nalishlari ifodalar berilgan. Jumladan Toshkent elektrotexnika aloqa instituti Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga aylantirildi. Ushbu universitetda yangi mutaxassisliklarning, keng doirasi bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini ancha kengaytirish nazarda tutilmoqda. Bundan

tashqari, o'quv yurtlarining moddiy-texnik va ilmiy-tadqiqot bazasini kengaytirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Farmonda va Xukumat qarorida belgilangan dasturiy chora-tadbirlarning amalda ro'yobga chiqarilishi boshqaruvning barcha tarmoq va mintaqaviy organlariga, iqtisodiyot va madaniyatning barcha sohalariga, umuman jamiyatga daxldordir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun maxsus kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlaitrish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etildi. Joriy yilda Kengashga 2010 yilgacha bo'lgan davrda telekommunikatsiyalar va ma'lumotlar uzatishning milliy tarmog'ini rivojlantirish; davlat boshqaruviga elektron texnologiyalarni joriy etish; elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni tayyorlash topshirildi..

O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligi O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligiga aylantirildi, unga respublikada axborotlashtirishni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha funktsiyalar yuklandi. Axborot xizmatlari soxasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha zarur normativ-xuquqiy xujjatlarni ishlab chiqish maqsadida kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda joriy etish markazi tashkil etildi.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyoti samardorligi o'sishida telekommunikatsiyalar, kompyuter va axborot texnologiyalarining faol roli oshishini, odamlarning faoliyati va turmushi texnik qurilmalar va xizmatlarning eng zamonaviy turlari bilan jihozlanishini ta'minlash, respublikaning jahon jarayonlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi imkonini beradi.

I BOB. ANALITIK QISM

1.1 Internetda interaktiv xizmatlar

Interaktivlik tushunchasi. Interaktivlik deganda biz, faqatgina, biz o‘rganayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o‘rnatilgan muloqatni tashkil etish tushuniladi. Demak, Kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, Biz u yordamida kompyuter bilan muloqat o‘rnatamiz.

Umuman olganda interaktivlik bu muloqat tizimini tashkil etish bilan bog‘liq. Ya’ni, maqsadga ko‘ra tizim elementlari orasidagi axboriy ma’lumotlar almashinuvi. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo‘llaniladi.

Interaktiv xizmatlar tushunchasi. Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko‘riladigan manfaat mavjud bo‘lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya’ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi.

Internet tarmog‘i orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmat turlari. Hozirgi vaqtda, Hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e’tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo‘li, bu, ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi. Internet tarmog‘i orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmat turlariga quyidagilar kiradi:

Transport vositalarning harakatlanish jadvali. Respublikadagi transport vositalarini harakatlarini ifodalash jadvali bir nechta saytlarda berilgan. Foydalanuvchi saytdan o‘ziga maqul transport vositalarini qatnovi jadvallari haqidagi ma’lumotlarni topadi. Quyida ushbu veb sahifalarni keltirilgan:

<http://www.orexca.com> – sayyohlar uchun mo‘ljallangan veb sahifa;

<http://www.tgpt.uz> – toshkent shahridagi transport vositalari haqidagi veb sahifa;

<http://www.goldenpages.uz/> - O'zbekiston transport qatnovi reys jadvallari sahifasi.

Avia reyslar jadvali. Avia reyslari bo'yicha ma'lumotlar jadvalini aniqlash, ulardan foydalanish uchun <http://uzairways.com> - O'zbekiston havo yo'llari avia kompaniya veb sahifasiga murojat qilinadi. Saytda xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi avia qatnov jadvallari keltirilgan.

Temir yo'l transporti qatnovi jadvali. Respublika ichki va tashqi temir yo'l qatnovlari jadvallari va ular haqidagi ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan topish mumkin.

1. uzrailpass.uz - temir yo'l transport qatnovi jadvali.

2. www.roxanatour.com - Bu sayoxlik firmasi sayti bo'lib, bunda siz xalqaro va O'zbekiston ichidagi temir yo'l qatnovlari va havo yo'llari qatnovi jadvallari va u erda joylashgan mexmonxonalar xaqida ma'lumot va buyurtmalar majmualarini aniqlashingiz mumkin.

Bank xizmati ma'lumotlari va valyuta kurslari. O'zbekistondagi barcha banklar xaqidagi ma'lumotlar va yangiliklar, kunlik valyuta miqdorlari haqidagi ma'lumotlarini quyidagi saytlardan olish mumkin:

www.bank.uz ;

www.mikrokreditbank.uz;

www.agrobank.uz;

www.asakabank.com;

www.new.nbu.com;

www.uzpsb.uz;

www.infinbank.com;

www.xb.uz;

www.ipotekabank.uz;

www.csb.uz

va hakoza banklar.

Ob havo ma'lumotlari. Respublika barcha viloyatlari va Toshkent shahri hamda xalqaro miqyosda ob - havo haqidagi ma'lumotlarni quyidagi,

O‘zbekistonda yaratilgan veb sahifalardan aniqlash mumkin. ob-havo.uz; www.pogoda.uz ; www.meteoprog.uz. Ob-havo prognozi bo‘yicha eng to‘liq ma’lumotlarni www.meteoprog.uz veb sahifasidan olish mumkin. Sahifa dizayni ham foydalanuvchilar uchun juda qulay.

Yangiliklar. O‘zbekiston Respublikasida faoliyatlari dorasida olib borilayotgan asosiy yangiliklar majmuasini uza.uz, gov.uz hamda desk.uz veb saytlari orqali topish mumkin. Ushbu veb sahifalarda Davlat boshqaruv va xo‘jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlar mavjud.

Tele va radioeshittirish dasturlari. O‘zbekiston milliy teleradio kompaniyasi ma’lumotlari va teledasturlar jadvalini hamda ularning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni quyidagi veb sahifalardan olishingiz mumkin. www.mtrk.uz;

Ish o‘rinlar birjalari. Respublika doirasida bo‘sh ish o‘rinlarini topish, aniqlash va muloqat o‘rnatish quyidagi veb sahifalar orqali amalga oshirilishi mumkin. www.myjob.uz, www.vakansi.uz bu saytlardan siz ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlarni va Siz, o‘zingiz haqingizdagi ma’lumotlarni to‘ldirib jo‘natishingiz va javob olishingiz mumkin.

Sport yangiliklari. Respublika va xalqaro sport musobaqalari, ularning o‘tkazilish jadvallari va holatlari haqidagi ma’lumotlarni quyidagi veb sahifalardan qidirish mumkin: www.uff.uz; www.the-uff.com; www.paxtakor.uz; www.bunyodkor.uz; www.fifa.com. Bu saytlardan O‘zbekiston futboli va jaxon futboli yangiliklarini olishingiz mumkin. www.allsportsites.net bu saytdan esa sport turlari reytingi yangiliklari haqidagi ma’lumot olishingiz mumkin.

Sportal.uz sport yangiliklari

Davlat boshqaruv va xo‘jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko‘rsatiladigan interaktiv xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati – idoralar tomonidan idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog‘i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko‘rsatiladigan

xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko'rsatiladi:

- umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;
- bir tomonlama o'zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har xil formularlaridan foydalanish imkoniyatini berish;
- ikki tomonlama axborot ayirboshlash - so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish va/yoki berish);
- elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash shaklida ko'rsatilishi mumkin.

Bugungi kunda davlat organlarining veb-saytlari orqali aholiga interaktiv davlat xizmatlari asosida **384** turdagi interaktiv xizmatlar ko'rsatiladi.

Quyidagi veb sahifalardan Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlarni topish mumkin.

1.2 Oliy ta'lim muassasalarida interaktiv xizmatlarni tashkil etish tartibi

Muassasa tomonidan muassasaning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv xizmat ko'rsatish hisoblanadi.

Interaktiv xizmatlarni ko'rsatish:

a) axborot almashish va tarqatish tezkorligi darajasining o'sishi hisobiga davlat funksiyalarini bajarish samaradorligi va xizmat ko'rsatish sur'atini oshirishga;

b) muassasa tomonidan ularga yuborilgan so‘rovlarni puxta ishlanishi, yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqilishi ijro nazoratini kuchaytirishga;

v) muassasalarning fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlari bilan o‘zaro hamkorligi darajasini oshirishga;

g) muassasaning yuridik va jismoniy shaxslar hamda boshqa muassasalar bilan o‘zaro hamkorligiga sarflanadigan xarajatlarini qisqartirishga;

d) muassasa faoliyatining ochiq-oshkoraligi darajasini oshirishga;

e) ma’lumot almashinuvining takomillashgan mexanizmiga o‘tishga yo‘naltirilgan.

Interaktiv xizmatlar: umumiy foydalaniladigan axborotni tarqatish — tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali axborot resurslaridan foydalanish xizmatlarini amalga oshirish;

Bir tomonlama aloqa — to‘rli formadagi elektron shakldagi hujjatlardan foydalanish imkoniyatini berish;

Ikki tomonlama axborot almashinuvi — so‘rov bo‘yicha qabul qilish, tahlil (ko‘rib chiqish) va javob yuborishni o‘z ichiga oladigan muassasa interaktiv xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish.);

Interaktiv xizmatlar umumiy foydalaniladigan, foydalanish qulay hamda aholining barcha qatlamlari foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qoniqtirishga yo‘naltirilishi kerak. Interaktiv xizmatlarni taqdim etish qulay va tezkor bo‘lishi lozim.

Interaktiv xizmatdan foydalanishni kafolatli va xavfsiz bo‘lishi muassasa tomonidan ta’minlanishi kerak.

Interaktiv xizmat ko‘rsatish jarayonida taqsim etiladigan ma’lumot ishonchli, himoyalangan va qonun hujjatlarida belgilangan normalarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Interaktiv xizmatning huquqiy asoslari

Muassasa tomonidan interaktiv xizmatlarni ko'rsatishning quyidagi qonuniy asoslari mavjud:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgustdagi 181-sonli "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori;

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 17 dekabrda 259-sonli Internet tarmogida O'zbekiston Respublikasining hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 20 avgustdagi 239-sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining davlat axborot resurslarini hamda interaktiv davlat xizmatlarini hisobga olishni takomillashtirishga oid ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori;

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi PQ-1730-sonli "Zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi qarori;

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrda 378-sonli "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan xolda internet tarmogida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori.

Interaktiv xizmatlar reglamenti va ularni ishlab chiqish **tartibi**.

OTM interaktiv xizmatlarini ko'rsatish tartibi, shartlari va muddatlari qoidalari ilovada keltirilgan OTM veb-sayti orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlarning namunaviy pasporti asosida amalga oshiriladi.

OTM ma'muriyati tomonidan OTMning interaktiv xizmatlarini yo'lga qo'yish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

a) ilovada keltirilgan interaktiv xizmatlarning namunaviy pasporti asosida interaktiv xizmatlarning dasturiy vositalarini ishlab chiqilishini tashkillashtirish;

- o) interaktiv xizmatlarni OTM rasmiy veb saytiga o'rnatilishini ta'minlash;
- v) buyruq asosida interaktiv xizmatlar uchun mas'ul xodimlarni tayinlash va unga interaktiv xizmatlarni to'laqonli tashkil etish mas'uliyatini yuklash;
- g) Interaktiv xizmatlarni texnik - qo'llab-quvvatlash uchun axborot texnologiyalari markazidan mas'ul xodimni biriktirish.

OTMda birinchi navbatda quyidagi interaktiv xizmatlarning dasturiy tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etilishini ta'minlash lozim:

1. “Dars jadvali” interaktiv xizmati.

Bu interaktiv xizmatni tashkil etishda, dastlab OTM da dars jadvalini shakllantirish uchun mas'ul xodimlar tomonidan dars jadvali ma'lumotlari tayyorlanadi. Joriy OTM dars jadvali o'quv ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangandan so'ng, dars jadvaliga mas'ul xodimlarga beriladi va ular tomonidan interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasiga bir kun muddatda kiritiladi. Interaktiv davlat xizmati ma'lumotlar bazasini texnik ta'minoti OTM ATM zimmasiga yuklatiladi. Ushbu interaktiv xizmat orqali o'quv guruhlarining dars jadvalini ko'chirib olish mumkin.

Dars jadvali to'g'risidagi ma'lumotlarni olishda interaktiv xizmat ko'rsatish oynasi orqali qo'yidagicha tartibda ma'lumotlar saralanadi:

- 1) OTM fakultetlari ro'yxatidan tegishli fakultet tanlanadi;
- 2) tanlangan fakultetdagi mavjud ta'lim yo'nalishlari ro'yxatidan tegishli ta'lim yo'nalishi tanlanadi;
- 3) kurs va akademik guruh tanlanadi;

Bu interaktiv xizmat so'rov-javob usulida tashkil etiladi.

2. “OTM vakant lavozimlari” interaktiv xizmati.

Bu interaktiv xizmat OTM rektorati va xodimlar bo'limi tomonidan tashkillashtiriladi. OTM xodimlar hisobi yuritish dasturi orqali, dasturning shtatlar jadvali va xodimlarning OTM dagi ishlari to'g'risida ma'lumotlar asosida mavjud vakant lavozimlar aniqlanadi va ular haqidagi ma'lumotlar rektor tomonidan tasdiqlangandan so'ng interaktiv xizmatlar ma'lumotlar bazasiga joylashtiriladi.

Interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasi texnik ta'minotini yuritish OTM ATM tomonidan amalga oshiriladi.

3. “OTM ishchi o'quv rejalari” interaktiv xizmati.

Bu interaktiv xizmatni tashkil etishda OTM da ishchi o'quv rejalarni tayyorlash uchun mas'ul xodimlar tomonidan OTM ishchi o'quv rejalari to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantiriladi. OTM yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha ishchi o'quv rejalari rektor tomonidan tasdiqlangandan so'ng, interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasiga bir ish kuni mobaynida kiritiladi. Interaktiv davlat xizmati ma'lumotlar bazasini texnik ta'minoti OTM ATM zimmasiga yuklatiladi.

OTM ishchi o'quv rejalari haqidagi ma'lumotlarni olishda quyidagi amallar bajariladi:

- 1) Interaktiv xizmatlar ro'yxatidan OTM ishchi o'quv rejalari gipermurojaati tanlanadi;
- 2) Tegishli ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislik tanlanadi;
- 3) Tanlangan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisliklar bo'yicha ishchi o'quv rejani ko'chirib olish yoki uni ekranga chiqarish tugmasi bosiladi.

4. “OTMga qabul” interaktiv xizmati.

Bu interaktiv xizmat OTMda qabul komissiyasi tomonidan tashkillashtiriladi. Qabul komissiyasi mas'ul a'zolari tomonidan quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

1. OTMga o'qishga kirishda topshiriladigan hujjatlar ro'yxati;
2. Qabul komissiyasi telefon raqamlari;
3. Mutaxassisliklar va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul kvotalari;
4. Mutaxassisliklar va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtihon olinadigan fanlar.
5. Magistraturaga kirish imtihonlarining savollari ro'yxati;
6. Magistraturaga kirish imtihonlari o'tkazilish vaqti;
7. Magistraturaga kirish imtihonlari natijalari;

Joriy ma'lumotlar qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, bir ish kuni mobaynida interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.

Interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasi texnik ta'minotini yuritish OTM ATM tomonidan amalga oshiriladi. Bu interaktiv xizmat ommabop ma'lumotlarni olish usulida tashkil etiladi.

5. "OTM diplomini olganligi to'g'risida ma'lumot" interaktiv xizmati.

Bu interaktiv xizmat OTM Xodimlar bo'limi va Arxiv bo'limlari hamkorlikda tashkil etiladi. Bu bo'limlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar tomonidan OTM Xodimlar bo'limidagi va arxivdagi OTM bitiruvchilari haqidagi tasdiqlangan ma'lumotlar asosida interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasini shakllantiriladi. Interaktiv xizmat bo'yicha so'rov kelib tushgach, bu haqidagi ma'lumotlar interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasidan izlanadi. Bu ma'lumot topilgach, interaktiv xizmat uchun mas'ul shaxs avtomatlashgan ishchi o'rnidagi "Natijalar" bandida joriy ma'lumotlar chiqariladi. Aks holda shu badda, joriy hujjat haqidagi ma'lumot topilmaganligi to'g'risida axborot chiqariladi. Agarda murojaat qilingan diplom haqidagi ma'lumotlar interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasiga kiritilmagan bo'lsa, arxivdan tegishli hujjat izlab topilishi va interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasiga mas'ul xodimlar tomonidan kiritilishi ta'minlanadi. OTM xodimlar bo'limi boshlig'i ma'lumotlarni tasdiqlagach, interaktiv xizmat bo'yicha ma'lumotlar murojaat qiluvchiga yetkaziladi. Interaktiv davlat xizmati ma'lumotlar bazasini texnik ta'minoti OTM ATM zimmasiga yuklatiladi.

Interaktiv xizmatdan foydalanish uchun foydalanuvchi:

1. Familiyasi
2. Ismi
3. Sharifi
4. Telefon raqami
5. So'ralayotgan diplom seriyasi va nomeri
6. O'qishni tugatgan yili
7. E-mail haqidagi ma'lumotlarni kiritishi lozim.

Foydalanuvchi diplom haqidagi ma'lumotni e-mail orqali olishi mumkin.

6. "OTM ilmiy faoliyati" interaktiv xizmati.

Interaktiv xizmat OTMda ilmiy ishlar bo'yicha prorektor va ilmiy bo'lim xodimlari tomonidan tashkillashtiriladi. Mas'ul xodimlar tomonidan quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- 1 .OTM da tashkil etilgan ilmiy seminarlar va ularning kun tartibidagi masalalar;
- 2.OTM da o'tkaziladigan ilmiy anjumanlar va ular to'g'risidagi ommabop ma'lumotlar;
- 3.OTMda o'tkaziladigan davra suhbatlari rejasi, video- konferensiyalar va simpoziumlar to'grisida ma'lumotlar;
- 4.Doktorlik dissertatsiyasini shakllantirishga oid talablar;
- 5.OTMdagi mavjud ilmiy kengashlar va ular to'grisida ma'lumotlar;
- 6.OTM ilmiy kengashlarida himoya qilingan nomzodlik va doktorlik ishlari avtoreferatlari;

Joriy ma'lumotlar ilmiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangandan so'ng, bir ish kuni mobaynida interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.

Interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasi texnik ta'minotini yuritish OTM ATM tomonidan amalga oshiriladi. Bu interaktiv xizmat orqali OTM ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlardan foydalanish imkoni beriladi. Interaktiv xizmat ommabop ma'lumotlarni olish usulida tashkil etiladi.

7. “OTM elektron kutubxonasi” interaktiv xizmati.

Bu interaktiv xizmat OTM ARM xodimlari tomonidan tashkillashtiriladi. Mas'ul xodimlar tomonidan quyidagilar taqdim etiladi:

- 1.Mavjud elektron resurslarning bibliografik yozuvlari;
- 2.Mavjud elektron resurs.

Elektron resurs bo'yicha ma'lumotlarni kiritish mexanizmi OTM ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan reglament asosida amalga oshiriladi.

Interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasi texnik ta'minotini yuritish OTM ATM tomonidan amalga oshiriladi. Interaktiv xizmat so'rov-javob usulida amalga oshiriladi.

8. “Elektron qabulxona” interaktiv xizmati.

Bu interaktiv xizmat OTM Devonxona xodimlari tomonidan tashkillashtiriladi. Mas’ul xodimlar tomonidan fuqaro murojaati to’g’risidagi ma’lumotlar OTM rahbariga yetkaziladi. OTM rahbari tomonidan qo’yilgan rezolyusiya asosida fuqaro murojaati mas’ul xodimlarga taqdim etiladi. Ular tomonidan berilgan javob rektor tasdig’i asosida devonxonaga kiritiladi, Devonxonada yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatga berilgan javob bo’yicha elektron tarzda axborot yuborish tashkillashtiriladi.

Ushbu interaktiv xizmat so’rov-javob usulida tashkil etiladi.

Yakuniy qoidalar

OTM interaktiv xizmatini ko’rsatishda ma’lumotlar xaqqoniyligi va to’liqliligini ta’minlash interaktiv xizmat uchun mas’ul shaxsga yuklatiladi.

Interaktiv xizmatning texnik ta’minoti OTM Axborot texnologiyalar markazida amalga oshiriladi.

Yuqorida turuvchi mansabdor shaxslar tomonidan Interaktiv xizmatlarni ko’rsatishni nazorat qilish maqsadida interaktiv xizmat bo’yicha murojaatlar va ularga berilgan javoblar statistikasi bo’yicha ma’lumotlar beruvchi veb-servis yaratilishi lozim. Veb-servis orqali interaktiv xizmatni nazorat qiluvchi mansabdor shaxsga statistik ma’lumotlarni olishga ruxsat beriladi.

Internetning umumiy foydalaniladigan tarmogi vositasida ko’rsatiladigan interaktiv xizmatlar faqat OTMlarning rasmiy saytlari orqali amalga oshiriladi.

1.3 TATU Farg'ona filiali "OTM diplomini olganligi" interaktiv xizmatining pasporti

1.	Interaktiv xizmatni ko'rsatuvchi muassasa nomi	TATU Farg'ona filiali
2.	Interaktiv xizmat nomi	OTM diplomini olganligi to'g'risida
3.	Interaktiv xizmat natijalari tavsifi	Bu interaktiv xizmat foydalanuvchilarga so'rov orqali diplom xaqiqatan ham shu filialdan kim nomiga berilganligini tasdiqlash imkonini beradi. Agar diplom hakidagi ma'lumotlar interaktiv xizmat ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lsa. "Diplom joriy OTM dan berilgan", aks xolda
4.	Interaktiv xizmatdan foydalanuvchilar	Yuridik va jismoniy shaxslar
5.	Interaktiv xizmat foydalanuvchisining qog'oz ko'rinishdagi murojaati	Bitiruvchi dillomi nusxasi (bir nusxada)
6.	Interaktiv xizmatni ko'rsatish narxlari (hujjatni tayyorlash va taqdim etish), agarda hujjat	Bepul
7.	Interaktiv xizmatni ko'rsatish muddati	Internet tezligi 1024 Kb/s bo'lganda, xar bir yo'nalish haqida kerakli ma'lumotni olish uchun taxminan 30 soniya vaqt sarflanadi.
8.	Interaktiv xizmatni takdim etigada rad etish uchun asos, amaldagi qonunchilikka havola qilingan holda (mukammal ro'yxat)	Davlat xizmatini taqdim etishni rad etishda quyidagilar asos bo'ligai mumkin: a) interaktiv xizmat ko'rsatish dasturi o'rnatilgan serverda profilaktik ishlar o'tkazilayotgan bo'lsa;

9.	Interaktiv xizmatni takdim etuvchi muassasa joylashgan	Farg'ona sh., Mustaqillik k., 185 uy
10.	Interaktiv xizmatni ko'rsatuvchi muassasa ish tartibi, davlat xizmatini ko'rsatuvchi muassasaga murojaat qilish tartibi	Davlat xizmatidan Internet tarmog'i orqali kechayu kunduz foydalanish mumkin.
11.	Interaktiv xizmatni ko'rsatishda, talab oshib ketga va navbatsiz taqdim etish imkoniyatidan tashqari hollarda interaktiv xizmatini ko'rsatishning ketma - ketligi	Interaktiv xizmat ko'rsatilastganda. uni amalga oshiruvchi serverda har bir so'rov uchun alohida sessiya yaragiladi. So'rov bo'yicha ma'lumotlar veb sahifaga chiqarilgach, joriy sessiya yakunlanadi. Shuningdek, bir vaqtning o'zida server imkoniyati darajasida bir nechta sessiya ham ochilishi mumkin. Natijada interaktiv xizmatni ko'rsatish vaqti bo'yicha
12.	Interaktiv xizmatni olish uchun murojaat qilish va uni olish jarayonida interaktiv xizmati	Interaktiv xizmatdan foydalanish bo'yicha qo'llanma ishlab chiqiladi va filial veb saytiga joylashtiriladi.

II BOB. LOYIHALASH QISMI

2.1 CMS tizimlari va uning turlari

CMS lardan foydalanish kerak...mi?

Barchaga ma'lumki, butunjahon tarmog'idagi veb-sahifalar kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu holat O'zbekistonda, ya'ni Uznetda ham jadallik bilan amalga oshmoqda. Kimdir o'z shaxsiy sahifasini yaratsa, kompaniya va firmalar korporativ saytlarini yaratmoqda. Yana kimdir o'z kundaliklarini, ya'ni bloglarini olib boradilar.

Shu bilan birga, yirik portallar faoliyati ham rivojlanmoqda. Bularning hammasi esa biror dasturiy vosita yordamida yaratiladi. Kimdir HTML tilida, kimdir PHP da, yana kimlardir CMS deb ataluvchi tizimlar yordamida veb-saytlarni yaratmoqda. Xo'sh, CMS degani o'zi nima? Bu tizimni nima ekanini tushunish uchun, keling, avvalo, veb-sahifalar qanday yaratilishi haqida bilib olamiz.

1989-yilda Tim Berners-Li tomonidan World Wide Web, ya'ni Bununjahon o'rgimchak to'ri ixtiro qilinganidan boshlab uning har bir foydalanuvchisi oddiy bo'lsa-da, o'z veb-sahifasini yarata olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Lekin, buning uchun HTML (Hyper Text Markup Language) tilini bilish shart edi. Turli xil IT-kompaniyalari tomonidan bu ishni osonlashtiruvchi bir qancha dasturiy paketlar, jumladan Adobe Dreamweaver va Microsoft FrontPage kabilar yaratildi. Bunday dasturlardan ba'zilar sayt yaratishning barcha bosqichlarini (HTML-kodni yozishdan bu kodni serverga yuklashgacha) boshqarishni o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, ko'pgina hollarda (aynan oddiy sahifalarni yaratishda) foydalanuvchi bu kodni bilishi shart bo'lmagan. Sababi bu dasturlarda veb-sahifalarni yaratishning vizual usullaridan foydalanilgan.

Biroq, HTML-redaktorlarining barcha afzalliklariga qaramay, saytni boshqarish vaqt o'tgani sayin va yangi ma'lumotlar qo'shilishi bilan qiyinlashib

boraverdi. Chunki axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan veb-saytlar ham rivojlanib bordi. Sayt xaritasini yaratishdek oddiy funksiyani qo'shish uchun ham veb-yaratuvchilar tomonidan ancha-muncha mehnat talab etilar edi. Axir buning uchun barcha ilovalarni ko'rib chiqish, sahifalar orasidagi bog'liqliklarni tekshirish, menyuni yaratish, forumni qo'shish kabi ishlarni bajarish lozim edi. Bu esa doimiy diqqatni va juda ko'p vaqtni talab etardi.

Sayt yangilanishi muammosini, ya'ni yangilanishning avtomatlashtirishini hal qilish maqsadida yirik axborot kompaniyalari, jumladan, Newsweek va Time yangi dasturiy ta'minot yaratish ishlarini boshlashga majbur bo'ladi. Bu dasturiy ta'minotlar kontentni (ma'lumotlarni) boshqarish tizimlari (CMS – Content Management System) deb ataldi.


Statik va dinamik veb-sahifalar

Endi savol tug'ilishi mumkin: oddiy HTML kodida yozilgan sahifa bilan CMS nimasi bilan farq qiladi? Avvalombor, HTML da yozilgan sayt statik holda bo'lsa, zamonaviy saytlar dinamik ko'rinishga ega.

Oddiy sayt qanday prinsip asosida ishlashini ko'rib chiqamiz. Foydalanuvchi biror-bir, masalan, page.html sahifasiga murojaat qildi deylik. Veb-server o'zidagi veb-sahifalar katalogini ko'rib chiqadi va agar page.html bo'lsa, foydalanuvchiga uni ko'rsatadi, aks holda esa – 404-chi xabarni ("Fayl topilmadi") yetkazadi.

Dinamik sayt esa biroz boshqacha ishlaydi. Foydalanuvchi biror sahifaga murojaat qiladi, biroq bu murojaat diskdagi aniq bir faylga emas, balki sayt dvijokiga (agar dvijok PHP tilida yozilgan bo'lsa, odatda bu fayl index.php bo'ladi) qaratilgan bo'ladi. Dvijok foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni biror manbadan (masalan, ma'lumotlar bazasi yoki diskdagi fayldan) oladi, uni HTML-sahifaga aylantiradi va veb-serverga uzatadi, u esa o'z navbatida, foydalanuvchi brauzeriga jo'natadi.

Unda yana bir savol tugʻiladi: agar bitta faylnigina soʻrab, uni brauzerga uzatish mumkin boʻlsa, buncha murakkablashtirishning oʻzi nimaga kerak? Shuning uchunki, bu saytni boshqarish qulay boʻlsin. Aytaylik, siz 100 sahifalik (bu unchalik koʻp emas) oddiy sayt yaratdingiz. Ertami-kech siz bu sayt dizaynini, koʻrinishini oʻzgartirmoqchi boʻlasiz. U holda esa siz shu 100 sahifani qoʻlda oʻzgartirib chiqishingizga toʻgʻri keladi. Ustiga-ustak, siz avvaliga bu 100 sahifani kompyuteringizdagi lokal serverga yuklab olishingiz, undan soʻng tahrirlab, kerakli oʻzgartirishlarni kiritishingiz va oxirida yana serverga yuklashingiz kerak boʻladi.



Veb-serverning CMS siz holda qanday ishlashi


4-rasm.

Ana endi dinamik sayt qanday ishlashini koʻrib chiqaylik. Asosiy voqea – “HTML-sahifani yaratish”. Yaʼni dvijok kontentni – matnli maʼlumotni (u rasm va jadvallar bilan ham boʻlishi mumkin) oladi va uni dizaynga “kiyintiradi”. Demak, saytning dizaynini oʻzgartirish uchun siz faqatgina tayyor grafik mavzuni oʻrnatishingiz yoki bir-ikkita faylni – sayt shabloni fayllarini oʻzgartirishingiz kerak.

CMS tizimi sahifalarni dinamik koʻrinishga keltiradi: ular foydalanuvchi sahifani koʻrmoqchi boʻlgandagina amalda yaratiladi. Bu degani, sahifalar foydalanuvchi tomonidan bevosita koʻrilayotganda yangilanishi yoki oʻzgartirilishi mumkin.

CMS afzalliklari

Bu tizimlarning asosiy jihati shundaki, dinamik veb-sahifalarni oson yarata olish va ularni turli xil axborot bilan to'ldirish imkoniyatini berishdir. CMS tizimlari odatda murakkab bo'lib, ular o'z ichiga xabarlarni tarqatish xizmatlari (RSS), forumlar va internet-do'konlarni oladi. Shu bilan birga, ularni o'zgartirish ham oson.



Veb-serverning CMS bilan qanday ishlashi

5-rasm.

CMS nafaqat saytdagi turli ma'lumotlarni boshqarishni avtomatlashtiradi, balki shu bilan birga, sayt tuzilishining texnik tomonlari bilan tanish bo'lmaganlar, ya'ni yozuvchi va jurnalistlarga saytda o'z materiallarini bevosita foydalanuvchi interfeysi orqali qo'shish imkoniyatini beradi. Shu narsa tushunarli bo'ldiki, endi foydalanuvchilarga saytda o'z materiallarini ko'rish uchun HTML ni ham, saytdagi ma'lumotlar yangilanishining texnologiyasini ham bilishi shart emas.

CMS tizimi, shuningdek, veb-sayt yaratishni turli xil mutaxassislar orasida taqsimlab chiqish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, veb-dizayner o'z diqqatini saytning ko'rinishiga (dizaynni mukammallashtirish va shablonlarni o'rnatishga) qaratib, texnik yo'nalishda bo'lmagan mutaxassislar uni ma'lumotlar (matn, tasvir va animatsiyalar) bilan to'ldirishga harakat qiladi.

Bu ham hammasi emas. Ma'lumki, dvijok – CMS ning bir qismi xolos. U dizayn shabloni asosida sayt ma'lumotlarini chiqarib beradi. Bundan tashqari,

CMS da saytdagi ma'lumotlarni boshqarish (ular sayt bo'limlarini va kategoriyalarini yaratishga va ma'lumotlarni ular orasida bo'lib chiqishga imkon beradi) va bu ma'lumotlarni tahrirlash vositalari ham mavjud. Shu bilan birga, foydalanuvchi sayt ma'lumotlari aynan qayerda (ma'lumotlar bazasida, diskda HTML-fayl ko'rinishida yoki umuman tashqi serverda) saqlanayotganini bilishi shart emas.

CMS qo'llanilishi bilan ko'pgina qiyinchiliklar bartaraf etilishi mumkin. Yuqorida misol sifatida ko'rilgan sayt xaritasi ham avtomatik ravishda tuziladi, buning uchun foydalanuvchidan hech qanday mehnat talab etilmaydi. Shu bilan birga, CMS saytdagi qo'shimcha funksiyalarni, masalan, suratlar galereyasi yoki ro'yxatdan o'tish oynasini qo'llash imkonini beradi – shu kabi funksiyalar CMS kengaytmalari orqali amalga oshiriladi. Faqatgina u yoki bu kengaytmani o'rnatish kerak xolos.

CMSga o'tishning o'ziga xos qiyinchiliklari.

Xo'sh, CMS larning shuncha afzalliklari bo'lganda nima uchun barcha sayt egalari Joomla! yoki Drupal kabi CMS larga otishga intilmayapti? Bunga bir qancha sabablarni ko'rsatish mumkin.

Birinchi sabab, inertsia bo'yicha ketish yoki boshqacha aytganda, o'zi bilgan narsaga o'rganib qolish. Inson HTML ni ishlatishga o'rganib qoladi va CMS ga o'tish saytni boshqarishni avtomatlashtirish bo'yicha qancha qulayliklar keltirmasin, biror narsani o'zgartirishni xohlamaydi. HTML dan CMS ga o'tish-yillar ichida amalga oshishi mumkin.

Ikkinchi sabab, mavjud minglab HTML-sahifalarni CMS ma'lumotlar bazasiga moslab o'zgartirish kerak bo'ladi. Aksariyat hollarda buni qo'lda bajarish kerak bo'ladi. Katta sayt uchun bu jarayon ancha ko'p vaqtni oladi, bu esa saytni vaqtinchalik faoliyatining to'xtashiga va balki, kompaniya tomonidan ko'riladigan moliyaviy zararga olib keladi. Albatta, CMS ga o'tish saytni boshqarish bo'yicha ancha vaqt tejallishini hisobga olsa, kelajakda bu o'zini oqlaydi.

Endi, CMS ga o'tishga halaqit beruvchi faqatgina bitta to'siq qoladi – texnik holat. Deyarli barcha zamonaviy CMS ishlashi uchun xostingda PHP interpretatori va MySQL ma'lumotlar bazasi serveri bo'lishi kerak. Besh-olti-yil avval shu kabi funksiyalarni taqdim etuvchi xosting-provayderlar kam edi. Hozirga kelib, vaziyat yaxshi tarafga o'zgardi va PHP hamda MySQL ni qollaydigan xostingni O'zbekistonning o'zida topish qiyinchilik tug'dirmaydi.

Qaysi CMS dan foydalangan ma'qul?

Hozirgi davrga kelib, CMS asosiga qurilgan bir qancha tizimlar yaratilgan. Ularga misol qilib, Drupal, PHP-Nuke, WebDirector, Joomla!, NetCat, Slaed, Microsoft CMS, Wordpress, PHPShop kabilarni keltirish mumkin. Bu tizimlarning ba'zilari umuman tekin bo'lsa, ba'zilaridan esa haqqini to'labgina foydalanish mumkin.

CMS ni tanlash bir tomondan oson va jo'ndek ko'rinsada, bu juda jiddiy masala. Internetda ularning turli yo'nalishdagi o'nlab (agar yuzlab bo'lmasa): yuz dollarlab turadiganidan to ochiq kodli bepul turigacha, ma'lum bir sohagagina taalluqlisidan ixtiyoriy murakkablikdagi sayt qurish imkonini beradiganigacha, oson boshqariladiganidan administrator uchun katta qiyinchiliklar keltiradiganigacha turini topishingiz mumkin. Xullas, agar CMS lar bilan ishlash bo'yicha hech qanday tajribangiz bo'lmasa, keraklisini tanlash qiyinlashib ketishi tayin.

Dastlab keling, pullik CMS larni ishlatmaslikka harakat qilamiz. Axir katta pul to'lab, CMS ni ishlatishdan besamara foydalanishga naxojat. Shu yerda bir narsani aytib o'tish kerak: bu bilan o'zimizga qiyin qilamiz. Boshqa tarafdin esa, qanchalik murakkab bo'lsa, shunchalik qiziq bo'lishi aniq, shunday emasmi?

Endi CMS larga yana bir talab qo'yamiz: universallik. Bu degani, biz ishlatmoqchi bo'lgan CMS ixtiyoriy konfiguratsiyadagi kompyuterlarda ham ishlay olishidir. Shuningdek, saytni lokal serverdan haqiqiy serverga ko'chirganimizda yoki bevosita serverning o'zida yaratayotganimizda CMS bilan

hech qanday qiyinchiliklar tug‘ilmasligi kerak. Bu talabga esa, afsuski, ko‘pchilik bepul CMS lar javob bera olmaydi.

Barcha dasturiy ta’minotlarga qo‘yiladigan talablardan yana biri – xavfsizlik (axir siz haftalab-oylab yaratgan saytingizni shunchaki qiziqish uchun bir kunda buzishlarini xohlamasangiz kerak?). Shuning uchun CMS larning xavfsizlik darajalari doimiy yangilanib turishi shart.

Natijada, talablarimizga deyarli to‘liq javob beradigan quyidagi: PHP Nuke, Drupal, Joomla!, Slaed CMS tizimlarigina qoladi. Endi ana shu CMS larni batafsilroq ko‘rib chiqamiz va o‘zimizga kerakli ba’zi xulosalar chiqaramiz.

PHP Nuke. Eng birinchi CMS lardan biri bo‘lib, afsuski, ancha vaqtlardan buyon yangilanmay kelmoqda. Biroq, uning kodi ko‘plab adashlari uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda (masalan, DotNetNuke, PostNuke). Bu bir-biriga nom jihatdan yaqin bo‘lgan tizimlar foydalanuvchi diqqatiga navbatma-navbat chiqib turadi. Funksionallik jihatidan tizim ancha mukammal bo‘lib, uning uchun ko‘plab qo‘shimcha modullar yaratilgan. Masalan, xabarlar lentasi, forum, maqolalar, so‘rovlar tashkil qilish, statistika olib borish va boshqalar. Ammo, saytlarning tuzilishi jihatidan bir xillik kuzatiladi. Shu bilan birga, bu tizim yuklanishi qiyin bo‘ladi, ya’ni qo‘shimcha modullar sahifa yuklanishini sekinlashtiradi. Bu esa ko‘plab foydalanuvchilarga yoqmasligi tayin. Yuklanish nafaqat sahifaga, shuningdek, serverga ham tushadi, bu esa xosting xizmatini taqdim etuvchilarga yoqmaydi. Agar sizni shunday vaziyat qoniqtirsa, aynan shu CMS ni tanlashingiz mumkin. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: www.nukefiles.ru

Drupal. Turli xil o‘zgartirishlar orqali o‘zimizga moslab olish bo‘yicha eng mukammal CMS deb aytish mumkin. Shu yerda shuni aytish kerakki, “Tomchi” (bu tizim nomi ingliz tilidan aynan shunday tarjima qilinadi) aslida, CMS emas, balki “CMS ni tuzuvchi tizim”. Uning yordamida siz tayyor bloklardan kerakli CMS ni yig‘asiz. Shuni aytish mumkinki, funksionallik va dizayn jihatidan o‘zingizni qanoatlantiruvchi CMS ni hosil qilasiz. Standart modullar to‘plamiga

blog, forum, xabarlar lentasi, fayllarni yuklash, ovoz berish, qidiruv kabilar kiradi. Bunda ko‘rinadigan kamchilik bitta: PHP va MySQL ni mukammal bilish lozim. Agar bu qisqartmalarni tushunmagan bo‘lsangiz, keyingi CMS ga o‘tavering, aks holda esa bu tizimga jiddiyroq e‘tibor bering. Rasmiy sayti: www.drupal.org. Texnik yordamni www.drupal.ru saytidan ham olishingiz mumkin.

Slaed CMS. Bugungi kunda ancha ommabop CMS bo‘lib, turli xil saytlarda ishlatiladi. Ikki xil varianti mavjud: pullik va tekin (OpenSlaed). Ikkovi ham bitta yadroda qurilgan (bu degani xavfsizlik darajasi bir xil) va faqatgina funksionalligiga ta’sir qiluvchi modullar soni bilan farqlanadi. Bepul variantida biror mavzudagi nisbatan kichik portalni yaratishingiz mumkin. Ammo, bundan ortig‘ini emas. Dizayni ham unchalik katta qiyinchiliklarsiz o‘zgartirilishi mumkin. Tizim aslida Rossiyada yaratilgani uchun rus tilidagi yordam (slaed.net) haqida qayg‘urmasa ham bo‘ladi.

Joomla! Bugungi kunda eng mukammal dvijoklardan biri (agar bepullari ichida eng mukammali bo‘lmasa) bo‘lib, uning uchun shunchalik ko‘p qo‘shimcha modullar yaratilganki, ular yordamida o‘zingizning saytingizga deyarli ixtiyoriy funksionallikni berishingiz mumkin. Bu dizaynga ham tegishli bo‘lib, uni o‘zgartirish uchun ham juda ko‘p shablonlar mavjud. Biroq, bu yerda bir kamchilik ham bor: shablonlar tizimi shunday tuzilganki, sahifalarni yaratish va to‘ldirish jarayonida sayt bo‘limchalari kichik-kichik qismlar bo‘lib, ajralib qolishi mumkin. Ya’ni, bu qismlar jadvallar asosida yaratilgan. Bu esa saytingizga o‘z shaxsiy ko‘rinish berishingizda bir qator noqulayliklar tug‘diradi: yuqorida tilga olingan qismchalar kutilmagan joyda chiqib qolib, jahlingizni chiqaradi, shuningdek, ularni yo‘qotish uchun vaqtingiz ketadi. Umuman olganda, agar sizni tayyor shablonlar qoniqtirsa (ular esa juda ko‘p va xilma-xil), u holda bu tizim sizga juda mos keladi. Agar siz Joomla! ni tanlab o‘ziga xos original sayt yaratmoqchi bo‘lsangiz ozingina terlashingizga to‘g‘ri keladi. Rasmiy yordam sayti: joomla.org. Shuningdek, ruscha yordamni norasmiy bo‘lsada, ancha yaxshi bo‘lgan joomlaportal.ru va joom.ru saytlaridan ham olishingiz mumkin.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida siz o'z saytingizni tez va oson ravishda yaratishingiz mumkin. Ammo hech qaysi CMS sizga tayyor holdagi saytni taqdim etmaydi. Buning uchun sizdan harakat va mehnat talab etiladi. Yaratayotgan saytingiz boshqalarnikiga o'xshamasligi, dizayn jihatdan takrorlanmas va original bo'lishi uchun esa shaxsiy fantaziyangiz va qobiliyatingizni ishga solishingiz kerak.

2.2 CMS/CMF web saytlar yaratish sohasida tutgan o'rni (Drupal tizimi misolida)

Drupal nima? Keling bu savolga javob berishga harakat qilaylik.

[Drupal](#) bu - Saytni boshqaradigan tizim (Content Management System, CMS). Ko'pchilik Saytni boshqaradigan Framework (Content Management Framework, CMF) deb ham atashadi. Drupal PHP da yozilgan va ma'lumotlarni saqlab turish uchun MySQL, PostgreSQL malumotlar bazani ishlatadi. Drupal ochiq kodli ([Open Source](#)) va [GPL](#) litsenziyasi bilan himoyalaniadi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak Drupal orqali har xil , katta-kichik saytlar yaratiladi.

Drupal LAMP(Linux, Apache, MySQL, PHP) tizimiga mo'ljallangan, lekin boshqa dasturlar bilan ishlatish ham mumkin. Masalan PHP ni ishlata oladigan har qanday Web-server da va shu Web-serverni ishlata oladigan Operatsion tizim(Windows, Linux, Mac OS...) Drupal ni ishlata oladi. Aytaylik Windows, IIS, PHP, PostgreSQL. Harkim o'ziga qulay tizimni ishlatishi mumkin. Bizda ko'pqor local ishlarda foydalanish uchun [Denwer](#)ni maqul ko'riladi.

Drupal modulli (Module) va "ko'p ko'rinishli" (Template) tizim. Drupal arxitekturasi deyarli har qanaqa saytlarni yaratish imkonini beradi: blog, forumlardan tortib, katta informatsion portallargacha. Drupal asosida juda ham ko'p va xilma-xil saytlar yaratilgan. Drupal tizimi yadrosida Blog, Forum, Yangiliklar uchun kerakli modullar bor. Drupal ni yadrosidagi "asosiy" modullarini sanab va "qisqacha" ta'riflab o'tamiz.

1. User - sayt foydalanuvchilarini boshqaradi
2. Node - saytdagi malumotlarni boshqaradi (sahifa, post, ...)
3. Taxonomy - sayt malumotlarini kataloglashtiradi
4. Menu - sayt menularini boshqaradi
5. Poll - saytda so'rovnoma yaratish uchun ishlatiladi
6. Search - Saytda qidiruv imkonini yaratadi

7. Locale, Translation - Saytni ko'p tilli qilish imkonini beradi va hakazo...

Drupalni kamchiliklariga kelsak,

- Ko'pchilik Drupal [OOP](#) (Object Oriented Programming)ni ishlatmaydi deyishadi. Drupal dasturchilari bunga javoban PHP (PHP 5gacha)da OOP yaxshi emasligi uchun deb javob berishadi.
- Drupalni versiyalari bir-biriga to'g'ri kelmaydi, yani Drupal versiyalari [API](#)lari bir-biridan farq qiladi. Bunga Drupal dasturchilari - "agar biz Drupalni hamma versiyalarini bir-biriga to'g'ri keladigan qilganimizda, Drupalni kodlari juda ko'payib ketar edi va juda ham sekin ishlaydigan bo'lar edi. Shu bilan birga bunday yuqori darajaga erisholmas edik va bugungi kungacha yetib kelolmas edik" degan ma'noda javob berishadi. Meni fikrimcha Drupal dasturchilari haq.

Drupalni o'rnatish.


Oldin aytib o'tganimizdek Drupal LAMP tizimida ishlaydi. Lekin bizda Windows Operatsion tizimini ko'proq ishlatganimiz uchun [Denwer](#) dasturlar to'plamini maqul ko'ramiz.

Denwer nima?. Denwer - PHP, MySQL, Apache, Sendmail dasturlarini bir-biriga moslashtirilgan dasturlar to'plami. Bu Denwerni asosiy standart versiyasiga kiradigan dasturlar. Lekin Denwerni qo'shimcha dasturlarini (PostgreSQL, Firebird, ActivePerl...) alohida o'rnatish mumkin.

Demak Drupalni o'rnatishni boshladik. Buning uchun dastlab Denwerni <http://denwer.ru> saytidan o'zimizga ko'chirib olamiz va o'rnatamiz. Denwerni o'rnatish oson bo'lganligi uchun Denwerni o'rnatish haqida to'xtalib o'tmaymiz.


Denwer o'rnatganimizdan keyin odatda Denwer "Z:" (lekin foydalanuvchi o'ziga ma'qul ko'rgan diskni tanlashi mumkin, buning uchun qaysi joyga o'rnatish

so'ralganda o'rnatiladigan disk va uning katalogini yozish kifoya) virtul disk yaratadi va denwer shu virtual disk ichida bo'ladi. Albatta biz yaratmoqchi bo'lgan saytlar ham shu disk ichida bo'ladi. Denwer "Рабочий стол"ga quyidagicha 3ta "ярлык" yaratadi.



6-rasm.

Bu erda "Start Denwer" Denwerni ishga tushiradi, "Stop Denwer" Denwerni ishlashini to'xtatadi va "Restart Denwer" esa Denwerni qayta ishga tushiradi. Biz Denwerni ishlatib olish uchun "Star Denwer" ni ishga tushiramiz. Browserga <http://localhost> deb yozsak, bizda mana bunday oyna paydo bo'lishi kerak.




7-rasm.

Mana endi kompyuterimiz drupalni o'rnatish uchun tayyor bo'ldi.

Dasturning o'rnatiluvchi paketini Drupalning rasmiy www.drupal.org saytidan ko'chirib olashimiz lozim. Hozirda saytda eng so'ngi sinalgan 6.16 versiyasi mavjud shuning uchun, Drupalning 6.16 versiyasini ko'cho'rib olamiz va

o'rnatamiz. Agar sizda Drupal 6.x versiyasi yo'q bo'lsa, mana bu [linkdan](#) Drupal 6.x versiyasini ko'chirib olishingiz mumkin.

Drupal o'rnatilishi uchun bizga MySQL baza kerak bo'ladi. Buning uchun Denwerni ichidagi [phpMyAdmin](#)dan foydalansak bo'ladi. Browserga <http://localhost/Tools/phpMyAdmin>ni yozamiz. Shu erdan "Базы Данных" ichiga kirsak quyidagicha oyna paydo bo'ladi.



8-rasm.

Shu yerdan yangi baza yaratib olamiz. Misol uchun "drupal" degan nom bilan.


Endi "Z:/home" ni ichiga "mysite.uz" deb nomlangan papka yaratamiz va yana bu "Z:/home/mysite.uz" ni ichiga "www" deb papka yaratamiz. Endi shu yaratgan "Z:/home/mysite.uz/www" papkamizni ichiga Drupal 6 ni , bizni misolimizda drupal-6.16.tar.gz faylni arxivdan ochib joylashtiramiz. Agar arxivdan ochganingizda "www" paplasini ichida "drupal-6.16" degan papka turgan bo'lsa, "drupal-6.16"ni ichidagi hamma papka va fayllarni "www" papkasini ichiga olib o'ting va "drupal-6.16"ni o'chirib yuboring. Endi Denwerni "Restart Denwer" komandasini ishga tushiramiz, chunki biz yaratgan "mysite.uz" "virtual host"da yaratilishi kerak. Virtual Host haqida Denwer haqida yozganimda aytib o'taman.

Endi "Z:/home/mysite.uz/www/sites/default/" da joylashgan "default.settings.php" fayldan nusxa olib, uni "settings.php" deb nomlab qoyamiz. Mana va nixoyat Browserga <http://mysite.uz> deb yozsangiz, quyidagicha oyna chiqadi:



9-rasm.

Drupalni o'rnatishni "Install Drupal in English" linki bo'ylab davom ettiramiz.




10-rasm.

Bu yerda biz tepada phpMyAdmin orqali yaratgan MySQL bazamizni nomi va MySQL uchun foydalanuvchi ma'lumotlarini kiritamiz.

- Database name : drupal
- Database username : root
- Database password :

Denwerda MySQL uchun: foydalanuvchi "root" va parol bo'sh qoladi. Keyinchalik MySQL uchun parolni o'zingiz hohlaganizdek qilib o'zgartirib olishingiz mumkin. Hozir esa "Database password" deyilgan joyni bo'sh qoldiramiz. "Advanced options"da esa qo'shimcha to'g'rilashlar qilinadi. Hozir "Advanced options"ga ham tegmaymiz. Drupalni o'rnatishda davom etamiz. Keyingi qadamda quyidagi oyna paydo bo'ladi.



11-rasm.

Bu oynada saytimiz uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni to'ldiramiz. Yani:

- "Site name" - Saytimizni nomi, masalan : "Mening birinchi saytim"
- "Site e-mail address" - Saytimizni email adresi, sayt orqali foydalanuvchilarga email jo'natiladigan bo'lsa shu email orqali jo'natiladi

- "Username" - Sayt Administratori uchun nom. O'zingizni ismingizni qo'yishinigiz ham mumkin, yoki "admin" desangiz ham bo'ladi

- "E-mail address" - site administratori email adresi.

- "Password" - sayt administratori paroli, bizni saytimiz faqat o'rganish uchun bo'layotgani uchun parolni "123" desangiz ham bo'ladi. Esda qolarli :) Internetga qo'yilganda Albatta murakkab parol qo'yish kerak


- "Confirm password" - parolni tasdig'i

- "Default time zone" - Saytni vaqt zonasi, O'zbekiston uchun +0500

- "Clean URLs" - URL chiroyli holda korinishi, agar "Disabled" tanlasangiz URL lar "?q=" qo'shilgan holga ko'rinadi, bu esa sal hunikroq ko'rinadi

- "Update notifications" - bu Drupalni moduli hisoblanadi. Drupalni va modullarini internet orqali yangi versiyalarini tekshirib turadi. Agar yangi versiyalari paydo bo'lsa, Administratorga ekranda habar paydo bo'ladi. Agar kimda internet sekin ishlasa, yoki o'rtada proxy bor bo'lsa, Antivirus va shunga o'xshagan to'siqlar bo'lsa, buni o'chirib qo'ygani yaxshi. Chunki internetga ulanib yangi versiyalarini qidirishga urinyotganda, har xil hatolar bo'lishi mumkin. Saytni Internetga qo'yganingizdan keyin bu moduli yoqib qo'ysa ham bo'ladi.

Hamma kerakli maydonlarni to'ldirganimizdan keyin, davom etish tugmasini bo'sak, quyidagi oyna paydo bo'ladi:




12-rasm.

Drupal tizimi Drupalni o'rnatganimiz bilan bizni tabriklayapdi. [your new site](#) linkini bossangiz yangi o'rnatilgan Drupal saytini ko'rasiz. Agar qaysidir sabablarga ko'ra Administrator parolingizni esdan chiqargan bo'lsangiz Drupal sizni emailingizga xabar jo'natgan bo'ladi. Denwer esa bu emailni aslida jo'natmaydi, "Z:/tmp/!sendmail/" joyga fayl ko'rinishida saqlaydi. Shu joyda paydo bo'lgan faylni ichidagi link orqali faqat 1 marta Administratorni parolini tiklab olishingiz mumkin bo'ladi. Mana Drupalni o'rnatishni ham o'rganib oldik, agar kimdadir Drupalni o'rnatishda xato chiqsa, yuqorida ko'rsatilgan amallarni bajarilish tartibiga e'tibor berishi lozim.

Yuqorida Drupalni qanday qilib local komputerga o'rnatish haqida aytib o'tdik. Endi Drupal tizimi bilan tanishamiz.

Yuqoridagi hamma amallarni bajarib bo'lingandan keyin, Browserda <http://mysite.uz>ni yossak, bizda mana bunday sahifa paydo bo'lishi kerak:



13-rasm.


Chap tomondagi ko'rinib turgan linklarni tushuntirib o'tamiz.

- **My account** - Joriy foydalanuvchhi haqidagi ma'lumotlar va ularni o'zgartirish shu yerdan amalga oshiriladi
- **Create content** - Aynan shu erdan kerakli "Content"lar yani Malumotlar(sahifa, yangiliklar,...) yaratiladi.
- **Administer** - Bu erda Saytni boshqarish amallari bajariladi. Bu haqida quyuroqda to'liqroq to'htalib o'taman.
- **Logout** - Joriy foydalanuvchini sayt tizimidan chiqarish

Administer qismini boshlashdan oldin, "Create content" qismidan qanday qilib sahifa yaratishni ko'rib olaylik.

"Create content" qismiga kiradigan bo'lsak, u yerda ikkita link ko'ramiz, "Page" va "Story", yani "sahifa" va "maqola". Bular Ma'lumot turlari(Content types) hisoblanadi. Bu ikkita ma'lumot turi Drupalni o'rnatgan vaqtimizda qo'shib o'rnatiladi. Drupalda "Ma'lumotlar(Content)" - Ma'lumot turlariga(Content types) bo'linadi. Kerakli joyda boshqa qo'shimcha ma'lumot turlari qo'shish mumkin. Masalan : yangiliklar, ishchilar, mahsulotlar va hakazo. Hozirda bizda ikkita

ma'lumot turi bor(Page va Story). Shu yerdan biz yangi Sahifa (Page) yaratib ko'ramiz. Page linkini bossangiz mana bunday sahifa ochialdi



14-rasm.

Bu yerda

- Title - Sahifani nomi
- Menu settings - shu ma'lumot menuda ko'rinishini to'grilash. Agar shu kiritayotgan ma'lumotingiz alohida menuda ko'rinishini hohlasangiz shu joyda o'zgartirish qilishingiz mumkin
- Body - Sahifaning tanasi, yani shu sahifani ichiga kiradigan ma'lumotlar
- Input format - "Body"dagi matnni filter qilish imkonini beradi.
 - Filtered HTML - kiritilgan ma'lumotni foydalanuvchi browseriga jo'natyotganda, HTML taglarini keraksiz va "zarar"li qismlarini tozalab tashlaydi
 - Full HTML - kiritilgan HTML taglarini qanday bo'lsa, browserga shundayligicha jo'natadi

- Revision information - Shu sahifani versiyalarini yaratadi. Tarixini yaratadi desa ham bo'ladi. Masalan shu sahifani o'zgartirsangiz bundan oldingi holati o'chirilib ketmaydi, Malumotlar bazasida saqlanib turadi.
- Comment settings - Aynan shu Sahifa uchun izoh qoldirishni boshqarish
- Authoring information - shu Sahifa kim tomonidan qo'shilganini ko'rsatish mumkin, agar ko'rsatilmasa Joriy foydalanuvchi nomidan kiritilgan deb hisoblaniladi
- Publishing options - Kiritilayotgan ma'lumot saytda ko'rinish-ko'rinmasligini boshqarish.

Shu forma orqali yangi Page qo'shamiz. Biz misol uchun Sahifani nomini "Bosh sahifa" deb nomlaymlik va Body ni oddiy matn bilan to'ldiraylik. Siz ham o'zingizda hohlagan matn kiritib ko'rishingiz mumkin. Keling shu Sahifamiz alohida Menuda ko'rinadigan qilaylik. "Menu Settings"ni ichidagi "Menu link title"ga "Bosh sahifa" deb yozamiz. "Parent item"ga esa ""ni tanlaymiz. Va saqlaymiz, "Save" ni bosamiz.



15-rasm.

E'tibor bergan bo'lsangiz tepada yangi Menu paydo bo'ldi.

Mana endi Administer qismiga o'tsak ham bo'ladi. Saytni boshqarish amallari hammasi Administer qismida joylashgan.



16-rasm.

Administer qismini qisqacha tariflab o'tsak.

- Content management - Ma'lumotlar turlari va ma'lumotlarni boshqarishni o'z ichiga oladi.
- Site building - Bu bo'limda Saytni ko'rinishini va Modullarni boshqarish amallarini qilish mumkin.
- User management - Foydalanuvchilar bilan ishlash.
- Site configuration - Bu erda Saytni to'g'rilashlar yoki har xil modullarni to'g'rilashlar amallari bajarilari.
- Reports - Sayt bo'yicha hisobotlarni to'g'rilashlar va hisobotlarni ko'rish shu bo'limda joylashgan.

Administer qismiga "qisqacha" tarif berib o'tildi. Yana Drupal haqida kichik bo'lgan to'g'rilashni aytib o'tmoqchiman. Hozir <http://mysite.uz> ga kiradigan bo'lsak, Drupal ni standart matni ko'rinib turibdi. Shu matn o'rniga "Bosh sahifa"

chiqadigan qilib qo'ysak, qurib kelayotgan saytimiz chiroyliroq ko'rinishga ega bo'ladi. Buni "Administer" qismidagi "Site configuration" bo'limidan "Site information" menyusini tanlaymiz.


The screenshot shows the 'mysite.uz' administration interface. On the left is a sidebar menu with 'admin' as the main category, containing sub-items like 'My account', 'Create content', 'Administer', 'Content management', 'Site building', 'Site configuration', 'Actions', 'Admin interaction theme', 'Clean URLs', 'Date and time', 'Error reporting', 'File system', 'Image toolkit', 'Jquery forms', 'Logging and alerts', 'Performance', 'Site information', 'Site maintenance', 'User management', 'Reports', 'Help', and 'Log out'. The main content area is titled 'Home - Administer - Site configuration'. Under 'Site configuration', the 'Site information' tab is selected. A green message at the top says 'The configuration options have been saved.' Below this are several form fields: 'Name' (value: mysite.uz), 'E-mail address' (value: admin@localhost.com), 'Slogan', 'Mission', 'Footer message', 'Anonymous user' (value: Anonymous), and 'Default front page' (value: node). Each field has a small tooltip explaining its purpose. The 'Default front page' field is highlighted with a red border.

17-rasm.

Bu yerda "Default front page" dagi "node" degan yozuvni "node/1" ga o'zgartiramiz. Kimdadir "Bosh Sahifani"ni linki boshqa bo'lsa, yani "Bosh sahifadan" oldin boshqa malumot kiritgan bo'lsa o'zidagi "Bosh sahifa"ni linkini kiritishi kerak. Endi <http://mysite.uz> ga kirib tekshirib ko'rishingiz mumkin.

2.3 DREAMWEAVER dasturiy tizimi imkoniyatlarini keltirish


Macromedia Dreamweaver dasturi Macromedia dasturlari paketi tarkibiga kirib keng ko'lamdagi Web sahifalar, elektron dasliklar, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxonalar va HTML fayllar yaratish uchun mo'ljallangan dastur hisoblanadi. Macromedia Dreamweaver dasturini ishga tushirish uchun quyidagi tartibdagi ishlarni amalga oshirishimiz kerak bo'ladi. Sichqoncha ko'rsatkichini Пуск menyusiga olib borib uning chap tugmachasini bir marotaba chertamiz. Hosil bo'lgan menyudan "Все программы" bo'limiga o'tamiz, u erdan esa "Macromedia" bo'limini tanlaymiz. Xosil bo'lgan yangi menyudan esa buyrug'ini ustida yana sichqonchani chap tugmachasini chertamiz (quyidagi rasmga qarang).



18 – rasm.

Natijada Macromedia Dreamweaver dasturi yuklanadi. Macromedia Dreamweaver dasturi to'la yuklanib bo'lingach u erda taklif oynasi paydo bo'ladi. Bu taklif oynasining asosiy maqsadi bizga agar o'zimiz hohlasak Yangi HTML

dokument yoki PHP dokument yoki mavjud faylardan ochib olishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu oynaning ko'rinishi 2- rasmda keltirilgan.



19- rasm.


Biz o'zimiz uchun kerakli bo'lgan xujjatni ochib olganimizdan so'ng (yuqorida keltirib o'tilganidek, agar hohlasak yangi, hohlasak mavjud faylni) Macromedia Dreamweaver dasturining ishchi oynasining ko'rinishi quyilagi ko'rinishga keladi (-rasm). Dreamweaver dasturining interfeysi quyidagi qismlardan tashkil topgan.

Barcha dasturlarda bo'lgani kabi bu dasturning eng yuqori qatori sarlavha satri hisoblanadi. ya'ni ushbu qatorda fayl nomi va qaysi dasturga tegishli ekanligi, hamda uchta standart tugmachalar joylashgan. Bu quyidagi tugmachalardir.

-  - Свернуть – ochiq oynani masalalar paneli qatoriga tushurib qo'yish.
-  - Развернуть – oyna o'lchamlarni o'zgartirish.
-  - Закрыть – dasturdan chiqish.


Sarlavha satrining pastki qismida Macromedia Dreamweaver dasturining menyular qatori joylashgan.

File Edit View Insert Modify Text Commands Site Window Help




20 – rasm.

Menyular qatorining pastki qismida Macromedia Dreamweaver dasturining asosiy ob'ektlari joylashgan bo'lib, bu ob'ektlar yordamida biz bajarmoqchi bo'lgan ishlarimizning deYarli 70-80% qismini bajarishimiz mumkin bo'ladi.



21 – rasm.


Biz shu erda turib Yangi fayl hosil qilmoqchi bo'lsak ham albatta mana ob'ektlarga murojot qilishimizga to'g'ri keladi. Buning uchun ob'ektlar qatorining Layout – joylashtirish bo'limiga kirib quyidagi rasmda ko'rsatilganidek o'zimiz uchun kerakli freymlarni belgilashimiz kerak bo'ladi.



22– rasm.

Biz ushbu misolimizda chap freym, yuqori freymli bo'limini tanladik. Buning sababi shundan iboratki, bizning yaratmoqchi bo'lgan ushbu Web sahifamiz huddi shu ko'rinishda bo'lishidadir. Shu o'rinda shuni eslatma sifatida

qayd etib o'tish kerakki markaziy ya'ni MainFrame o'z-o'zidan avtomatik ravishda chap va yuqori freymlar kesishmasidan hosil bo'ladi. Har qanday dasturda him ish qilishdan oldin yaratmoqchi bo'lgan faylimizni saqlab olishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun fayl meknyusiga kirib Save as... - barchasini saqlash buyrug'ini tanlashimiz kerak bo'ladi. Ushbu holatda yana bir eslatib o'tish zarur bo'lgan ya'na bir narsa ham borki, u ha bo'lsa yaratilayotgan freymlarni umumiy saqlab qo'yishdir. Ko'pincha ushbu fayga **index.html** deb nom beriladi. **Index.html** bu o'z ichida qolgan barcha freymlarni birlashtirib turuvchi asosiy fayl hisoblanadi.



23 – rasm.

Demak biz o'zimiz uchun kerakli o'lcham va miqdordagi freymlarni yaratib olganimizdan so'ng unga ma'lumotlar kirishni boshlashimiz mumkin bo'ladi.

Endi esa yuqorida aytib o'tganimiz Macromedia Dreamweaver dasturining ob'ektlari haqida batafsilroq tanishib chiqaylik. Buning sababi yuqorida aytib o'tganimizdek biz Yaratmoqchi bo'lgan veb sahifamizni deYarli shu ob'ektlar yordamida tayyorlashimiz mumkinligidir.


Ishchi maydonni ko'rinishini sozlash.

Macromedia Dreamweaver dasturini ishchi maydonini sozlash, ya'ni uni ko'rinishini o'zimizga qulay bo'lgan holatda sozlab olishimiz mumkin. Buning uchun biz quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz kerak bo'ladi. Macromedia

Dreamweaver dasturining asosiy ob'ektlar qatorining pastki qismida joylashgan



bo'limlari yordamida amalga oshirish mumkin. Agar biz faqat kodlar yordamida ishlamoqchi bo'lsak **“Code”**  bo'limini tanlashimiz kerak bo'ladi. Agar ushbu bo'limni tanlasak ishchi maydon ko'rinishi quyidagi ko'rinishga keladi.



24- rasm


Agar ham kodlar bilan ham dizayn ko'rinishida ishlamoqchi bo'lsak biz **“Split”**  bo'limini tanlashimiz kerak bo'ladi. Biz **“Split”** bo'limini tanlasak ishchi maydon ko'rinishi quyidagi ko'rinishni oladi.

Agar biz faqat dizayn ko'rinishida ishlamoqchi bo'lsak u holda **“design”**  bo'limini tanlashimiz kerak bo'ladi. **“Design”** bo'limi oynasini tanlasak ishchi maydon ko'rinishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

Macromedia Dreamweaver dasturini ishchi oynasini foydalanuvchi o'ziga qulay ko'rinishda sozlab olishi mumkin.

Yangi Frame (freym) lar hosil qilish.

Yangi Frame (freym) lar hosil qilish uchun yuqorida keltirib o'tilganidek Layout – joylashtirish bo'limidan  tugmachasini chertishimiz kerak bo'ladi. U quyidagicha ko'rinishga ega




25-rasm.

Macromedia Dreamweaver dasturining hususiyatlar (Properties) oynasi.

Macromedia Dreamweaver dasturining yana bir asosiy imkoniyatlaridan bu ishchi maydonning pastki qismida joylashgan hususiyatlar oynasining mavjudligidir.

Hususiyatlar oynasining asosiy hususiyati shundaki, qaysi ob'ekt aktiv holatda turgan bo'lsa aynan ana shu ob'ekt hususiyatlarini ko'rsatib turadi. (YUqoridagi rasmga qarang)


Endi esa hususiyatlar oynasi haqida batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Buning asosiy sababi shundan iboratki biz dizayn ko'rinishida ishlaganimizda ko'proq mana shu hususiyatlar oynasi bilan ishlashimizga to'g'ri keladi. Hususiyatlar oynasining umumiy ko'rinishi quyidagicha.



26-rasm.

Bizning holatimizda rasm aktiv holatda bo'lanligi tufayli hususiyatlar oynasida ana shu rasmning hususiyatlarini o'zida aks ettirib turibdi. Masalan ushbu rasmning hajmi, o'lchamlari (eni va bo'yi), nomi gipersilka va shunga o'xshash boshqa xususiyatlarini o'zida aks ettirib turibdi.

Page properties – varaq hususiyatlari




27-rasm.

Yuqoridagi oynadan esa biz endi aktiv varaq hususiyatlarini sozlashimiz mumkin bo'ladi. Masalan: shirift turi, o'lchami va rangi, orqa fon rangi orqa fonga rasm joylashtirish, silkalari o'rnatish va hakoza shunga o'xshash hususiyatlarini ko'rib chiqishimiz mumkin.


III BOB. TADBIQ QILISHNI TASHKIL QILISH VA LOYIHA SAMARADORLIGI

Malakaviy bitiruv ishining amaliyotga tadbiqu

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti sayti tarkibida yaratilgan diplomini olganligi haqidagi saytiga brauzerda www.diplom.tatuff.uz terib kiririladi. Saytda foydalanuvchilarga quyidagi ma'lumotlar mavjud. Saytning yuqori qismida Saytmini nomi, undan song filialning ichki imkoniyatlarini o'zida akslantirgan slayshou harakatlanib turibdi. Chap qismida tillar hamda foydali saytlar ro'yhati joy olgan. Markaziy qismda sayt haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Sayt ikki qismdan iborat, bular boshqaruv va foydalanuvchi qismlaridir.




28-rasm. Sayt boshqaruv qismi.



29-rasm. Saytning foydalanuvchi qismi.


Saytning boshqaruv qismi qisqacha imkoniyatlari.

Saytning boshqaruv qismiga kirish uchun <http://diplo.tatuff.uz/user> manzilini browserda yozilib administrator logini va parolini terib kiriladi.




30-rasm.

Tizim o'zbek, rus va ingliz tillarida faoliyat yuritadi. Buni boshqaruvchi tanlash imkoniyatiga ega. Odatda bosh til sifatida o'zbek tili o'rnatilgan. Tizimga talaba haqida ma'lumot qo'shish uchun Kontent qo'shish havolasini bosish lozim.



31-rasm.

Natijada quyidagicha oyna ochiladi.



32-rasm.

Bu bandlardan biz **Diplom** bandini ustida sichqoncha chap tugmasini bosamiz. Natijada quyidagicha oyna ochiladi.

Diplom yaratish

Bosh sahifa » Kontent qo'shish

Familiyasi, Ismi, Sharifi *

O'QISHGA KIRGAN YILI *

2015
Format: 2015

BITIRGAN YILI *

2015
Format: 2015

Fakultet *

Axborot texnologiyalari

Yo'nalish *

Informatika va axborot texnologiyalari

O'qish turi *

- Select -

Bo'lim(kunduzgi/kechki/sirtqi) *

- Select -

Diplom seriyasi *

B

Diplom raqami *


Diplomni ro'yhatga olish raqami *

BERILGAN VAQTI *

06/12/2015
Format: 06/12/2015


Magistr/Bakalavr *

Bakalavr



33-rasm

Barcha bandlarni to'ldirib saqlab tugmasini bosamiz. Barcha kiritilgan ma'lumotlarni Kontent bo'limiga o'tib ko'rish va tahrirlash imkoniyati mavjud.



34-rasm.


Foydalanuvchi qismi imkoniyatlari.

Sayt foydalanuvchilarga Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filialini tamaomlagan talabalar diplom olganligi haqida ma'lumot berishni ko'zlagan. Buning sayda izlash bo'limi mavjud.




35-rasm.

Bu banddan istalgan bo'lim bo'yicha ma'lumot izlash mumkin.



36-rasm.

Foydalanuvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarni web saytning bog'lanish bo'limi orqali yo'llashlari mumkin. Bu xizmat saytda interaktiv xizmatlarni joriy qilish maqsadida qo'llanilgan.



37-rasm.

Turli spam va botlardan himoyalash saytga kirish va bog'lanish bo'limlarida maqsadida saytda hozirda web saytlarda himoya tizimi sifatida ko'p qo'llanilayotga captcha tizimidan foydalanilgan.

CAPTCHA

This question is for testing whether you are a human visitor and to prevent automated spam submissions.

Math question: *

12 + 5 =

Solve this simple math problem and enter the result. E.g. for 1+3, enter 4.

Tizimning samadorlik ko'rsatkichlari

Zamon talablariga to'liq javob beradigan ko'p funksiyali sayt yaratish tashkilot, korxonadan katta mablag' talaba etadi. Biroq shunday texnologiyalar ham borki bular yordamida PHP va MySQLni bilmaganlar ham ko'p funksiyali sayt yarata oladi. Bunday texnologiyalarni WYSISWG texnologiyalar deb ataladi. Va yana shunday dasturiy ta'minotlar ham borki bular WYSISWG texnologiyalar asosida ishlaydi va barcha imkoniyatlaridan foydalangan holda arzon va ishonchli saytlar yaratish mumkin. Bunday tizimlar ichida Drupal o'z o'rniga ega. Drupal tizimida yaratilgan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali diplomini olganligi to'g'risida ma'lumot beruvchi sayti anashunday imkoniyatga ega va hozirgi davr talabiga javob beradi.

IV BOB. MEHNAT MUHOFAZASI

Shaxsiy EHM lar bilan ishlashda ishlab chiqarishning xavfli va zararli faktorlari.

Texnik rivojlanish asrida va tevarak atrofning ifloslanishi sharoitida ekologiya hamda insonlar salomatligini saqlash masalalari borgan sari aktuallashib bormoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi ishlab chiqarish jarayonlarining umumiy xavfsizlik talablariga, ishlab chiqarish vositalarining umumiy xavfsizlik talablariga, shovqinlarning umumiy xavfsizlik talablariga, ishlab chiqarish binolari mikroiklimining umumiy xavfsizlik talablariga hamda jahon ISO 14000 talablariga to'la mos keladi.

Ushbu bobda biz EHM ishlayotgan operatorning salomatligiga hamda mehnatning optimal tashkil qilish bo'yicha tadbirlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ayrim ishlab chiqarish faktorlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Quyidagi jadvalda EHM operatorining mehnat qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar keltirilgan.

Ish o'rni:

- yorug'lik;
- nurlanish;
- mebel.

Binolar:

- ish o'rni;
- tovush izolyatsiyasi;
- havo;
- interer.

Yoritilganlik:

- tabiiy;
- sun'iy;
- umumiy;

Ish rejimi:

- charchoq;
- bir hildalik.

Mikroiqlim:

- temperatura;
- namlik;
- chang.

· mahalliy.

Operator, asosan, o'tirgan holda mehnat qiladi. Ish o'rnini loyilashtirishda albatta, fiksirlangan ish holati fiziologik jihatdan yaxshi emasligini nazarda tutish kerak. Chunki, bunday holatda insonning pastki organlarida, oyoq, bel bo'g'imlarida qon aylanishining yaxshi bo'lmaydi va bu narsa kasbiy kasalliklarga (masalan, venalarning varikoz kengayishiga) olib kelishi mumkin. Harakatlar cheklangan bir paytda organizmning (tayanch harakat a'zolarida, nafas olish organlarida, ovqat hazm qilish organlarida) faoliyati bo'ziladi, gipodinamiya, ya'ni kam harakatlilik kasalligi yuzaga kelishi mumkin.

EHM operatoriga shuningdek, EHM dan taralayotgan nurlanish ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Masalan, elektron nur trubkasi qontsentrlangan nurlar oqimini yuzaga keltiradi, ekranning kuchli va bilinar bilinmas "titrashi" kuchsiz bo'lsada, elektromagnit nurlanishlarini hosil qiladi. EHM operatorining ish o'rnini tashqil qilishda eng muhim faktorlardan biri – bu yoritilganlik masalasidir. Amaliy jihatdan tabiiy va sun'iy yoritishga albatta ehtiyoj paydo bo'ladi. Ko'pincha, EHM bilan ishlayotgan odamlar ekranni imqoni boricha yorishtirib, binoning yorug'lik manbasini o'chirib qo'yishadi. Bir qaraganda, ko'rinish yaxshilanganga o'xshaydi-yu, ammo asta - sekin odam o'z ko'rish qobiliyatini pasayganligini sezmay qoladi.

Konstruktiv va texnik yechimlar. Mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun tashkiliy tadbirlar.

Ish o'rne. Kompyuter bilan ishlaydigan har bir odam uning bir qator salbiy ta'sirlarini sezishi mumkin. Ammo bunday ta'sirlardan ish kuni va operatorning ish o'rnini to'g'ri tashkil qilgan holda forig' bo'lish mumkin.

Shuning uchun doimiy ravishda EHM yonida o'tirib ishlaydigan shaxslar uchun ish o'rinlarini loyihalashtirish alohida e'tiborga molik masala hisoblanadi. Gavdaning tayanch maydonga bosimi teng taqsimlangan bo'lishi talab qilinadi. Bunday samaraga faqatgina kresloni inson gavdasining anatomik to'zilishiga to'la mos bo'lgandagina erishish mumkin. Hozirgi kunda sharnirlarga o'rnatilgan

kreslolardan keng foydalanilmoqda. Bu element ish vaqtida gavadni boshqarishga hamda qisqa muddatli dam olishga imkon beradi.

Videomonitor ekrani operator ko'zidan 600-700 mm, ammo ekrandagi alfavit va boshqa belgilarning hususiyatlarini hisobga olgan holda 500 mm dan kam bo'lmagan masofada optimal o'rnatilgan bo'lishi lozim. Albatta himoya ekrani, ekran filtrlari yoki elektromagnit nurlanishlarini qaytaruvchi boshqa individual himoya vositalaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

Mehnat rejimi. Charchoqni va mehnatning monotonligini kamaytirish uchun ishlab chiqarish gimnastikasi bilan shug'ullanish yoki ish jarayoni ish pozasini o'zgartirish yaxshi samara beradi.

Charchoqning oldini olish uchun asosiy usul bo'lib operator mehnati va dam olishini optimal tashqil etish hamda bir soatlik tushlik tanaffus, ish vaqtida qisqa muddatli (10-15 min) dam olishlarni yo'lga qo'yish yaxshi natija beradi. Binoni yaxshilab va muntazam ravishda shamollatish ham charchoqni pasaytirishda katta o'rin tutadi. Xonaga kirgan toza havo miya ish qobiliyatini hamda qon aylanishini yaxshilaydi, charchoqni pasaytiradi. Xonaga kiradigan havo miqdorini yilning iliq, issiq, sovuq davrlarini hisobga olgan holda olib boriladi.

EHM lar va video-displeyli terminallar joylashgan binolarning mikroiklimi uchun optimal normalar.

Yil davri	Mehnat kategoriyasi	Havo tempera-turasi , ° S	Havoning nisbiy namligi, %	Havo oqimining tezligi, m/s
Sovuq	Engil 1	22-24	40-60	0,1
Iliq	Engil 1	23-25	40-60	0,1

Nur tarkatishlar

Nur tarqatish – bu Kompyuter bilan ishlashda uchraydigan zararli faktordir. “Kompyuter texnikasining asosiy kamchiligi- nur tarqatishdir. Nur tarqatishning kattagina qismi monitorga to'g'ri keladi, chunki monitor har tomonga

elektromagnit va elektrostatik maydon, ekrandan esa radiatsiya va ultrabinafsha nurlarini tarqatadi. Kompyuterdan tashqari, lazerli printer, nusxa ko'chirish apparatlari, yahni ichki qismi yuqori kuchlanishga ega bo'lgan texnikalardan ham



nur tarqaladi. Bundan tashqari, toner - kartrij ichidagi tarkibida og'ir metall bo'lgan kukun ham g'oyat xavflidir. SHuningdek, uzoq vaqt Kompyuter oldida ishlash ko'z uchun nihoyatda zararlidir.

Kompyuter texnikasidan taralayotgan nur inson organizmiga qanday zarar etkazishi mumkin?

Avvalambor, markaziy nerv sistemasiga juda katta ziyon etkaziladi. Bunda, ayniqsa, bolalar aziyat chekadilar. Kishi tez - tez asabiylashadigan bo'lib qoladi, diqqatini bir joyga jamlash qiyin kechadi, stresslarga berilish darajasi oshadi. Yurak - tomir sistemasi va yuqori nafas olish yo'llari kasalliklari vujudga keladi, immunitet pasayib ketadi.

Quyidagi shartlarga amal qilsangiz, bu dardlarni chetlab o'tish mumkin:

- Monitordan 40-50 sm masofada bo'ling;
- Sifatli himoyasi bo'lgan yaxshi monitor sotib oling;
- Monitoringizdagi tasvir yetarli darajada aniq bo'lsin;

Stolni tanlash

Stol imkoni boricha katta bo'lishi lozim. Bu asosiy shartdir, chunki agar barcha moslamalarni o'rnatish uchun joy kamlik qilsa, ergonomika to'g'risida eslamasa ham bo'ladi. Stolning balandligi qorin o'rtasi bilan bir sathda bo'lishi, oyoqlar polda tekis turishi, bo'ksa pol bilan parallel bo'lishi, gavda esa tik holatda bo'lishi kerak.

Shuningdek, stol qancha og'ir bo'lsa, shuncha yaxshi. Stol qimirlamay, mahkam turishi kerak, chunki vibratsiya – texnika dushmandir. 2ta stolni to'g'ri burchak ostida bir-biriga yonma-yon qilib qo'ysangiz undan ham yaxshi, bunda ikkinchi stolni ishlayotgan qo'lingiz sichqonchadan bimalol foydalanishi uchun o'ng tomonga qo'ying. Stol va devor o'rtasi ochiq tursin. Yaxshisi Kompyuter uchun maxsus stol olganingiz ma'qul.



39-rasm.

Dasturchi – operator ish o‘rni uchun optimallashtirilgan zarur bo‘lgan 19 fazoviy kattaliklar belgilangan. Tavsiya etilayotgan kattaliklar antropologik ma’lumotlarni hisoblash yo‘li va grafik qurishlar asosida aniqlangan.

Elektr tokining odamga ta’siri

Elektr jihozlari ishlatishi va to‘zilish vaqtida odam elektr toki kuchlanishi ta’siri ostida qolishi mumkin.

Kuchlanishga ko‘ra elektr qurilmalari 1000 V ga va 1000 V dan yuqori kuchlanishli qurilmalarga ajratiladi.

